



ARTICLE INFO

Received: 06th March 2023

Accepted: 17th March 2023

Online: 20th March 2023

KEY WORDS

demokratik davlat va fuqarolik jamiyati, diniylik va dunyoviylik, demokratik yo'l, dinlararo munosabat, materialistik qarash, mutaassib kuchlar.

FUQAROLIK JAMIYATIDA DINIYLIK VA DUNYOVIYLIK
UYG'UNLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOY-FALSAFIY
OMILLARI

Abdullayev Akmal Nasriddinovich

Namangan davlat pedagogika instituti

erkin tadqiqotchisi, PhD.

E-mail: vatican_25@mail.ru

Tel: 94 277 51 00

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7751359>

ABSTRACT

Diniylik va dunyoviylikning o'zaro munosabati harakteri u yoki bu jamiyatda ularning qanday shakli, ko'rinishi hukmron mavqeni egallashi bilan belgilanadi. Mazkur maqolada fuqarolik jamiyatida diniylik va dunyoviylik qarashlari mohiyatan o'zaro qarama-qarshi bo'lsalar-da, bir-biriga ta'sir qilib, ba'zan bir-birini to'ldirib, bir-birlarining qarashlaridan ma'lum darajada ta'sirlanib shakllanganligining qiyosiy tahlili keltirilgan. Shuningdek, bugungi kunda turli mutaassib kuchlar tomonidan diniylik va dunyoviylik nisbati buzib talqin qilingan holda, davlatga oid dunyoviy ishlardan dinni ajratish dahriy davlat va axloqsiz jamiyat qurishga olib kelishi haqidagi noxolis da'volarga qarshi fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kirish. Keng qamrovli islohotlarning amalga oshirilishi natijasida mamlakatimiz qiyofasi tubdan o'zgardi. Fuqarolarning ongi o'sdi, dunyoqarashi o'zgardi. O'tgan yillar mobaynida demokratik qadriyatlar va ko'nikmalar shakllanib xalq turmush tarzining ajraimas qismiga aylanib bormoqda.

Demokratik islohotlar yo'li – biz uchun yakkayu yagona va eng to'g'ri yo'ldir. Mamlakatimizda inson huquqi va erkinliklari demokratik jamiyatning eng oliy qadriyati sifatida namoyon bo'lishi uchun barcha choralarni ko'rmoqdamiz[4:21-22]. Lekin O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurish bosqichida diniylik bilan dunyoviylik o'rtasidagi yangi nisbatni shakllantirish har doim ham silliq kechmayapti. Bu yo'lda musulmon aholi diniy ongini radikallashtirish va siyosiyashtirishga qaratilgan urinishlar hamon davom etmoqda. Bunday harakatlarning aniq ko'rinishlarini islom niqobi ostida harakat qilayotgan turli oqimlarning faoliyatida ko'rish mumkin.

Dunyoviylik tamoyili mustaqil O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni bilan huquqiy kafolatlangan [1; 2]. O'zbekiston tanlagan taraqqiyot yo'li – dunyoviy demokratik yo'l. Din axloqiy tarbiya sohasida muhim ahamiyatga ega vazifani bajaradi.

Ming yillar davomida islom dini tamoyillariga sodiq holda yashab kelayotgan xalqimiz go'zal fazilatlarini to'laligicha hayoti, urf-odat va an'alariga singdirib olgan. Xalqimizning urf-odat va asriy an'alarini o'zida aks ettirgan respublikamiz qonunchiligida kimning



qanday e'tiqodga ega bo'lish-bo'lmasligi uning vijdoniga havola etiladi. Lekin havola etilayotgan e'tiqod qonunga xilof bo'lmasligi shart.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Bugungi kunda globallashuvning millatlararo va dinlararo munosabatlarga o'tkazayotgan salbiy ta'sirining oldini olish haqida bosh qotirish va samarali mexanizmlarni topish o'z mustaqilligini, erkini, o'ziga xosligini qadrlashga qodir bo'lgan barcha millatlar oldida turgan eng dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu muammoni chuqur anglagan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Harakatlar strategiyasi O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat shakllantirish jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. Strategiyada beshinchi yo'nalish sifatida "Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish" deb belgilandi [3:35-36]. Prezidentimiz tomonidan, keyinchalik barcha nutq va ma'ruzalarida tinchlikni ta'minlash, millatlar va dinlararo totuvlik muhitini qo'llab-quvvatlash, din niqobidagi ekstremizm va terrorizmga qarshi ayovsiz kurash masalalari asosiy tamoyil sifatida olg'a surib kelinmoqda. Din niqobidagi ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash qat'iy belgilangan yondashuv asosida olib borilishi lozim. Bunda asosiy maqsad sifatida demokratik qadriyatlar, siyosiy rang-baranglik, so'z erkinligi, tenglik va diniy bag'rikenglik g'oyalarining ilgari surilishi muhimdir.

Tahlil va natijalar. Diniylik va dunyoviylik o'rtasidagi qarama-qarshilik mutlaq yo'qolmaydi. Ilmiylik va diniylikning, dunyoviylik va diniylikning asosiy tamoyillari o'zaro zid, qarama-qarshiliklarga to'la ekanligi tufayli ilgarigi davrlarda bo'lganidek, kurash ayrim masalalarda turli ko'rinishlarda, ochiq yoki yashirin davom etadi. Demokratik davlat va fuqarolik jamiyati bu ziddiyatlarni keskinlashtirishga, ularning butun kuch va diqqatini ayni ziddiyatlarga qaratishga yo'l qo'ymasligi kerak. Aksincha, jamiyat taraqqiyoti uchun hamkorlik imkoniyatlariga, uni amalga oshirishga asosiy masala sifatida qaralsa, bunyodkorlik faoliyatlari samarali bo'ladi. Diniylik va dunyoviylikning radikal ko'rinishlari (aqidaparastlik va ateizm) asosiy tamoyillarni mutlaqlashtirib, keskin ravishda bir-birini yo'q qilishga urinadi. Bir tomonlama, ateizmga asoslangan dunyoviy davlat diniylikning bunyodkor imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga yo'l bermaydi.

Demokratik dunyoviy davlat va fuqarolik jamiyatida sekulyarlashuv bilan bir qatorda diniy ong, mafkura ham ijtimoiy hayot sharoitlariga, ehtiyojlariga mos holda o'zgarib, zamonaviylik kasb etib borishi nazarda tutiladi. Aks holda turli ziddiyatlar kelib chiqishi ehtimolligi oshadi.

Hozirgi zamon jamiyatlarida turmush tarzining, hayot sharoitlarining o'zgarishi ayrim guruhlarning ma'naviyatida, g'oyaviy tarbiyasida qusurli unsurlarni kuchaytirmoqda. Egoizm, individualizm, yuzakichilik, o'ziga xos, taraqqiyot talablariga zid ehtiyojlar ayrim guruh ma'naviyatida ildiz otmoqda. Natijada diniylik qiyofasidagi o'zgacha, cheklangan, oqilona bo'lmagan ehtiyojlarni qondirishga yo'nalgan "yangi din"lar vujudga kelmoqda. Ular irodasi bo'sh, ma'naviyati yetuk bo'lmagan kishilarning jamiyatdagi, ijtimoiy hayotdagi keskin muammolarga noilmiy, noratsional reaksiyasidir. Rivojlangan, demokratik, ma'naviyat muammolari keskinlashgan jamiyatlarda paydo bo'lgan bunday "yangi din"lar, diniy harakatlar globallashuv sharoitida keng yoyilish imkoniyatiga egalar. Bu jarayonlar diniy va



dunyoviy mafkuralarni sog'lomlashtirish masalasini dolzarb qilib qo'ymoqda. Oqilona ehtiyojlarga mos, taraqqiyotga xizmat qilishga layoqatli diniy va dunyoviy qarashlar o'rtasidagina hamkorlik munosabatlari bo'lishi mumkin.

Jamiyat tafakkuri tarixida diniylik va dunyoviylik ikki qarama-qarshi, bir-birini inkor qiluvchi tamoyil sifatida anglanib kelindi, ular o'rtasidagi munosabatda ham shunday qarash hal qiluvchi rol o'ynadi. Haqiqatan ham diniylik haqiqiy, abadiy dunyo deb g'ayritabiiy dunyoni tan oladi, insonning tabiiy dunyodagi hayotini abadiy dunyoga o'tish vositasigina deb qaraydi. Dunyoviylik esa, reallikdan kelib chiqib, asosiy e'tiborini moddiy olamga qaratadi, insonning moddiy dunyoga moslashishiga, uni o'rganish va o'zgartirish asosida hayot sharoitlarini yaxshilashga undaydi. Bunda biri tabiat va jamiyatdagi mo'jizalarga, hayot qiyinchiliklariga, hali bilib olinmagan sirli hodisalarga, inson hayotining muqarrar o'tkinchiligiga, ayrim kishilarning kundalik hayot darajasidagi tasavvurlariga asoslansa, ikkinchisi insonning dunyoviy bilimlariga, real hayotdagi tajribasiga, ularning turmush sharoitiga keltira oladigan amaliy foydasiga asoslanadi [5:649].

Diniy va dunyoviy qarashlar mohiyatan o'zaro qarama-qarshi bo'lsalar-da, bir-biriga ta'sir qilib, ba'zan bir-birini to'ldirib, bir-birlarining qarashlaridan ma'lum darajada ta'sirlanib kelishgan. Ularning tub masalalarda o'zaro kurashi har birining takomillashuviga turtki bergan. Olamning dunyoviy (falsafiy, ilmiy) manzarasi ba'zi dinlarning dunyo haqidagi tasavvurlariga asos bo'lgan bo'lsa, ba'zi diniy kitoblardagi fikrlar dunyoviy bilimlarning yanada chuqurlashuviga turtki bergan.

Diniylik va dunyoviylikning o'zaro munosabati harakteri u yoki bu jamiyatda ularning qanday shakli, ko'rinishi hukmron mavqeni egallashi bilan belgilanadi. Jamiyatda aqidaparastlik hukmron bo'lganda har qanday dunyoviy qarashlarni inkor qilgani, o'ziga to'la bo'ysundirishga uringani kabi, ateistik, ashaddiy materialistik qarashlar ham diniylikni jamiyat, insoniyat uchun ortiqcha narsa deb bildi. Jamiyatda ularning boshqa, mo'tadil ko'rinishlari hukmron bo'lgan sharoitlarda diniylik va dunyoviylikning erkin rivojlanishi, ma'lum ma'noda faoliyat sohalarining ajralishi, bir-biriga nisbatan bag'rikenglik, chidamlilik, bir-birining jamiyatdagi, inson hayotidagi ahamiyatini tan olish jarayoni kechadi. Jamiyat taraqqiyotining ob'ektiv ehtiyojlari ular o'rtasidagi munosabatlarning harakteriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xukmron mafkura tomonidan bu ob'ektiv ehtiyojlar qanchalik to'g'ri anglansa, diniylik va dunyoviylik munosabatlari o'rtasidagi hamkorlik ham shunchalik maqsadga muvofiq rivojlanadi [6].

Muhokama. Bugungi kunda turli mutaassib kuchlar tomonidan diniylik va dunyoviylik nisbati buzib talqin qilinib, davlatga oid dunyoviy ishlardan dinni ajratish dahriy davlat va axloqsiz jamiyat qurishga olib kelishi haqidagi noxolis da'volar tobora ko'proq yangramoqda.

Musulmonlarning dunyoviy davlatda yashashi mumkinligi ilmiy isbotlar talab qilmaydi. Nafaqat G'arbiy Yevropa, Amerika va Avstraliyadagi aholining ozchiligini tashkil qiluvchi musulmonlarning tajribasi, balki aholisining mutlaq ko'pchiligi musulmonlardan iborat Turkiya yoki O'zbekiston tajribasi ham shundan dalolat beradi.

Ammo ayrim guruhlarning siyosat bilan din ajralmasdir, ijtimoiy hayotning barcha sohalari islom dini qoidalari asosida boshqarilishi kerak, degan demokratiya tamoyillariga zid da'volari biryoqlama kayfiyatlarni uyg'otmoqda. Shuningdek, ayrim buzg'unchi kuchlar tomonidan zamonaviy dunyoviy qonunchilik asosida hayot kechirish musulmonlar uchun



maqbul emasligi haqida soxta da'volar tarqatilmoqda. Vaholanki, dunyoviy qonunlar haqida islom ulamolarining fikrlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin: zamonaviy jamiyat talablariga muvofiq chiqarilgan qonunlar shariatga zid kelmasa, unday qonunlar shariatdandir [7]. Zero, har bir shariat inson manfaati uchun yuborilgan, jamiyatlarning o'z manfaatlarini ko'zlab chiqargan qoidalari garchi shariatdan olinmagan bo'lsa-da, lekin shariatga zid kelmasa, ular ham shariatga muvofiq (shar'iy) hisoblanaveradi[8], deydi O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi Nuriddin hoji Xoliqnazarov.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, hozirgi zamonaviy davlatlar o'z poydevorini e'tiqodiy tamoyillar emas, balki fuqarolik negiziga quradilar. Dunyoviylik shaxs uchun xizmat qilar ekan, din ta'limoti uni doimo qo'llab-quvvatlab turadi. Din hamisha dunyoviy ishlarni ma'naviy jihatlarini qo'llab-quvvatlab turgan.

Dindan g'arazli maqsadlarda foydalanish, diniy omillardan foydalanib siyosatga aralashish holatlari mutloqo man etiladi. O'zbekiston davlatining tanlangan yo'li dunyoviy demokratik yo'ldir. Din tarbiyaviy-axloqiy sohada muhim vazifani bajaradi. Ammo uni siyosiy maqsadlar uchun niqob qilib olish, diniy davlat barpo etish konstitutsiyamiz qonunlariga mutloqo ziddir.

Diniylik va dunyoviylik bir-biriga mutlaq zid tushunchalar ham emas. Ular dunyo va inson hayotining mohiyatiga turlicha qarash usullaridir. Dunyoviylik tushunchasida diniy tashkilotlarni siyosiy tashkilotlardan ajratish va diniylikni barcha uchun asos qilib olmaslik tamoyili turadi. Dindorlik esa, qalbga bog'liq hissiyot. Uni barchaga majburiy singdirish hech qaysi diniy tamoyillarga to'g'ri kelmaydi. Dunyoviy taraqqiyot yo'lini tutgan davlatlarda garchi din davlatdan ajratilgan bo'lsa-da, jamiyatdan ajralmagan. Milliy va diniy qadriyatlar xalqlar ma'naviy qiyo-fasining muhim qismlaridan hisoblanadi.

References:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, НМИУ, 2018. <https://lex.uz/docs/20596>.
2. “Ўзбекистон Республикасининг Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 05.07.2021 йилдаги ЎРҚ-699-сон. <https://lex.uz/docs/5491534>.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. – Тошкент: Адолат, 2018.
4. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O'zbekiston, 2021. – 464 б.
5. Саифназаров И., Дониёров Х. Ўзбекистонда дунёвийлик ҳамда динийлик мувозанатини таъминлашнинг асосий шарт ва омиллари // “Yangi O'zbekiston: barqaror rivojlanishning ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy-siyosiy va huquqiy masalalari”. Volume 2 | Special ISSUE 23. April 2022. – Б. 649-661.
6. <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-282462-1.html?page=10>.
7. <http://surxonmuslim.uz/?p=2019>. Дунёвийлик – дахрийлик эмас.
8. <http://vakillik.uz/archives/> Динийлик ва дунёвийлик Ислom нигоҳида.
9. Насриддинович, А. А. (2021). Структура, модели и характеристики гражданского общества. СТРУКТУРА, 7(4).



10. Абдуллаев, А. Н. (2020). ОСОБЕННОСТИ ПОЯВЛЕНИЯ СЕМЬИ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ. European Science Review, (3-4), 69-72.